


## IX. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT


2021 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 510,4 mln. AQSh dollari tashkil etgan, jumladan 220,9 mln. AQSh dollarini-eksport, 289,5 mln. AQSh dollarini - import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosini -68,5 mln. AQSh dollari tashkil qildi.

**Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**  
(mln. AQSh dollari)




So'ngi yillarda xukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.


**2021 yil yanvar-iyun oylari viloyat tashqi savdo aylanmasida  
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**  
(mln. AQSh dollar va foizda)



**2020 yil yanvar-iyun**



**2021 yil yanvar-iyun**



2021 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,5 % ga, MDH davlatlari 117,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 134,8 % ga ko'paygani kuzatildi.

Jumladan, jami eksport aylanmasi 117,4 % ni va shundan MDH davlatlari 103,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlarga 175,8 % ni tashkil etdi.

Jami import aylanmasi 132,4 % ga ko'paygan bo'lib, undan MDH davlatlari 150,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 124,7 % ga ko'paygan.

2021 yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (2020 yilning tegishli davriga nisbatan) 157,8 % ga ortganligi, mashina va asbob-uskunalar 166,4 % ga, ko'rsatilgan xizmatlar 162,6 % ga ko'paygani kuzatildi.


**MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi**  
(mln. AQSh dollari)

	yanvar-iyun		o'sish sur'ati, % da
	2020 yil	2021 yil	
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>406,8</b>	<b>510,4</b>	<b>125,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	216,9	254,7	117,4
Boshqa davlatlar	189,9	255,7	134,6
<b>Eksport</b>	<b>188,1</b>	<b>220,9</b>	<b>117,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	150,9	155,6	103,1
Boshqa davlatlar	37,2	65,3	175,5
<b>Import</b>	<b>218,6</b>	<b>289,5</b>	<b>132,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	66,0	99,1	150,1
Boshqa davlatlar	152,6	190,4	124,7

### Viloyatdagi eksport-import tarkibi

	Umumiy hajmdagi ulushi, % da		2020 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan % da
	2020 yil yanvar-iyun	2021 yil yanvar-iyun	
<b>Eksport tarkibi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
paxta tolasi	0,2	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	27,2	17,3	63,6
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	1,1	1,5	136,3
energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	0,1	-
qora va rangli metallar	3,8	0,7	18,4
mashina va uskunalalar	1,9	2,7	142,1
engil sanoat	59,3	72,1	121,6
xizmatlar	1,8	1,0	55,5
boshqalar	1,7	4,6	97,8
<b>Import tarkibi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	15,5	16,5	106,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	20,7	17,8	85,9
energiya manbalari va neft mahsulotlari	1,7	2,3	135,3
qora va rangli metallar	7,0	9,8	140,0
mashina va uskunalalar	35,2	35,1	99,7
xizmatlar	0,2	0,2	100,0
boshqalar	19,7	18,3	92,8

**Viloyat tovar aylanmasida katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi**  
(2021 yil yanvar-iyun, % da)



**2021 yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasi  
yuqori ulushga ega davlatlar**


*(ming AQSh dollari)*

Davlatlar nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import
Rossiya	143 708,7	96 520,4	47 188,3
Xitoy	133 083,5	32 994,8	100 088,7
Qozog‘iston	55 899,8	20 016,3	35 883,5
Turkiya	48 565,7	15 848,2	32 717,5
Qirg‘iziston	31 604,0	28 721,1	2 882,9
Xindiston	10 166,9	655,3	9 511,6
Ukraina	7 568,8	4 434,2	3 134,6
Polsha	7 474,2	4 132,2	3 342,0
Germaniya	6 392,3	807,0	5 585,3
Belarus	6 015,6	1 234,9	4 780,7
Turkmaniston	5 994,6	1 507,6	4 487,0
Tayvan	5 393,5	42,7	5 350,8
Koreya Respublikasi	5 080,7	87,1	4 993,6
Italiya	4 388,5	673,9	3 714,6
Malayziya	4 272,9	-	4 272,9
Fransiya	3 911,9	-	3 911,9
Tojikiston	2 650,4	1 946,2	704,2
Eron	2 509,2	240,2	2 269,0
Argentina	2 439,3	-	2 439,3
Portugaliya	2 024,1	1 883,8	140,3
Afg‘oniston	1 929,5	1 929,5	-
Avstriya	1 699,7	-	1 699,7
Shvedsariya	1 601,8	0,4	1 601,4
Latviya	1 528,1	312,5	1 215,6
Misr	1 089,2	1 047,1	42,1

**2021 yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo  
aylanmasida katta ulushga ega bo'lgan davlatlar**

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2020 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan % da
Rossiya	28,2	140,6
Xitoy	26,1	140,7
Qozog'iston	11,0	114,7
Turkiya	9,5	224,1
Qirg'iziston	6,2	59,5
Xindiston	2,0	294,0
Ukraina	1,5	172,2
Polsha	1,5	189,3
Germaniya	1,3	70,4
Belarus	1,2	384,1
Turkmaniston	1,2	205,1
Tayvan	1,1	639,7
Koreya Respublikasi	1,0	58,5
Italiya	0,9	148,6
Malayziya	0,8	89,0
Fransiya	0,8	153,1
Tojikiston	0,5	92,9
Eron	0,5	211,1

2021 yil yanvar-iyun oylarida jami eksport tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- Yengil sanoat
- Qora va rangli metallar
- Mashina va uskunalar
- Xizmatlar
- Boshqalar

Joriy davrda eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021 yilning yanvar-iyun oylarida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmiga nisbatan yengil sanoat ulushi 72,1 %, oziq-ovqat mahsulotlari eksportining ulushi 17,3 % ni hamda boshqa turdagi mahsulotlar eksportining ulushi esa 10,6 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar eksporti hajmi 5554,9 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 162,6 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.



**2021 yil yanvar-iyun oylarida jami eksport tovarlari  
hajmi shahar va tumanlar kesmida**  
(ming AQSh dollari)

	yanvar-iyun		O'sish sur'ati, % da
	2020 yil	2021 yil	
<b>Viloyat jami</b>	<b>188 160,9</b>	<b>220 980,7</b>	<b>117,4</b>
Namangan sh.	45 193,2	72 488,8	160,4
Mingbuloq	9 927,3	11 909,1	120,0
Kosonsoy	12 252,7	15 759,2	128,6
Namangan t.	10 834,0	10 085,1	93,1
Norin	12 555,0	8 914,1	71,0
Pop	5 788,7	7 216,7	124,7
To'raqo'rg'on	32 908,2	40 457,0	122,9
Uychi	11 608,6	19 933,9	171,7
Uchqo'rg'on	9 936,4	14 602,2	147,0
Chortoq	9 416,3	3 666,4	38,9
Chust	10 781,6	7 965,9	73,9
Yangiqo'rg'on	15 107,4	5 127,5	33,9


**2021 yil yanvar-iyun oylarida viloyat eksportida  
asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (% da)**



Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Ukraina va Polsha davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport xajmining 91,8 % tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Ukraina va Polsha davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruxlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**2021 yil yanvar-iyun oylarida jami import tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)**




Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021 yilning yanvar-iyun oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan mashina va uskunalar importining ulushi 35,1 % ni, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlari importining ulushi 17,8 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 16,5 % ni hamda boshqa turdagi mahsulotlar importining ulushi esa 18,3 % ni tashkil etdi.

**2021 yil yanvar-iyun oylarida jami import tovarlari  
hajmi shahar va tumanlar kesmida**

*(ming AQSh dollari)*

	yanvar-iyun		o'lish sur'ati, %da
	2020 yil	2021 yil	
<b>Viloyat jami</b>	<b>218 664,8</b>	<b>289 473,2</b>	<b>132,4</b>
Namangan sh.	98 069,6	125 886,1	128,4
Mingbuloq	6 005,9	12 961,7	215,8
Kosonsoy	13 917,8	20 272,0	145,7
Namangan t.	22 772,3	21 189,6	93,0
Norin	11 149,6	18 182,4	163,1
Pop	8 782,8	10 446,7	118,9
To'raqo'rg'on	12 249,6	12 504,2	102,1
Uychi	8 203,5	15 648,9	190,8
Uchqo'rg'on	1 657,6	3 547,7	214,0
Chortoq	3 372,1	9 153,7	271,5
Chust	14 724,8	18 294,5	124,2
Yangiqo'rg'on	9 008,1	20 227,5	224,5

**2021 yil yanvar-iyun oylarida viloyat importida  
asosiy hamkor davlatlar ulishi, (% da)**



2021 yil yanvar-iyun oylarida viloyatga 61 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shundan 9 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Belarusiya, Xindiston, va Tayvan kabi xamkor davlatlarning jami import hajmi 245 236, ming AQSh dollarga teng. Bu esa umumiy import hajmining 85,0 % ni tashkil qiladi.